



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

**O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASIDA
BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY
KO‘RSATKICHLARI**



**2024- YIL YANVAR-SENTABR
DASTLABKI MA‘LUMOT**

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari


2024-yil 1-oktabr holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

2024- yil 1- oktabr holatiga O'zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 30 801 tani tashkil etdi

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 6 957 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 22,6 % i Toshkent shahrida joylashgan.

Toshkent sh.	6 957	Andijon	1 873
Toshkent	2 548	Qoraqalpog'iston R.	1 688
Farg'ona	2 395	Xorazm	1 585
Buxoro	2 389	Namangan	1 483
Samarqand	2 270	Jizzax	1 285
Qashqadaryo	2 177	Navoiy	1 223
Surxondaryo	2 080	Sirdaryo	848

Qurilish korxonalari soni, birlikda




2024-yil 1-sentabr holatiga qurilish sohasida faoliyat korsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, O'zbekiston Respublikasida jami 167 101,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 109,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (yanvar-sentabr oylarida hajim mlrd so'mda)



Bajarilgan qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati (% da yanvar-sentabr oylarida)



* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.


O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida, xususan, Toshkent shahri (42 715,3 mlrd so'm), Toshkent viloyati (17 419,3 mlrd so'm) va Buxoro viloyatida (11 638,1 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

O'sish sur'ati % da

Hajmi mlrd so'mda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 72,0% ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,6% ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,8% ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 112,5% ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,2% ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,4% ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati (% da)




Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari ulushi



120 252,3
mlrd so'm

Bino va inshootlar
qurish



31 412,5
mlrd so'm

Fuqarolik
obyektlarini qurish



15 436,4
mlrd so'm

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 74,2% i yoki 123 996,8 mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 32 400,8 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 26,1% ni tashkil etdi.

26,1%

32 400,8
mlrd so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 51 656,2 mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 41,7% ni tashkil etdi.

41,7%

51 656,2
mlrd so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 39 939,8 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 32,2% ni tashkil etdi.

32,2%

39 939,8
mlrd so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi (% da)




* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Toshkent shahri (29 281,8 mlrd so'm), Toshkent viloyati (9 528,7 mlrd so'm), Buxoro viloyati (8 755,6 mlrd so'm) va Farg'ona viloyatida (8 580,8 mlrd so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi (mlrd so'mda)



Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 22,8 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,0 % punktga kamayib 39,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,4 % punktga kamayib, 38,1 % ni tashkil etdi.

Bino va inshootlar qurilishining jami hajmi –120 252,3 mlrd so'm



2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari (% da)

120,2


106,1

105,3

Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (78,6%), Namangan viloyati (78,5%) va Navoiy viloyatida (77,4%) kuzatildi.

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi (mlrd so'mda)



Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi (% da)



Jizzax viloyati
78,6



Namangan viloyati
78,5




Navoiy viloyati
77,4

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 32,7 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,8 % punktga kamayib 67,2 % ni tashkil etdi.


Korxonalar turlari kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmlari



Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (55,5%), Sirdaryo viloyati (27,0%) va Buxoro viloyati (24,1%)da kuzatildi.

Hududlar kesimida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi (mlrd so'mda)



Fuqarolik obyektlari qurish faoliyat turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi (% da)



55,5

Samarqand viloyati



27,0

Sirdaryo viloyati



24,1


Buxoro viloyati

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga ko'paydi va 20,2 % ni tashkil etdi.

Qolgan 79,8 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,6 % punktga kamaydi .

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Jamiga nisbatan ulushi (% da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (14,4%), Namangan viloyatida (13,1%) va Toshkent viloyatida (12,3%) kuzatildi.

Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd so'mda)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi (% da)



14,4

Toshkent shahri



13,1


Namangan viloyati



12,3

Toshkent viloyati

Qurilish ishlari hajmining tarkibi (mlrd so'mda)




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati (% da)



Yirik qurilish tashkilotlari

2023-yil mos davriga nisbatan **124,2**



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-yil mos davriga nisbatan **104,9**



Norasmiy sektor

2023-yil mos davriga nisbatan **105,2**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 40 823,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 124,2% ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,0% ga ko'payib, 24,4% ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi (% da)



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (32,8 % i), Qashqadaryo viloyatida (30,7 %) va Navoiy viloyatida (29,7 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd so'mda)

	811,8
Qoraqalpog'iston Resp.	536,1
Andijon	1 571,6
Buxoro	485,8
Jizzax	3 186,3
Qashqadaryo	2 591,1
Navoiy	584,2
Namangan	1 392,8
Samarqand	799,7
Surxondaryo	490,4
Sirdaryo	2 915,0
Toshkent	2 005,1
Farg'ona	741,6
Xorazm	13 991,9
Toshkent sh.	

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori ulushga ega hududlar, jamiga nisbatan % da



Toshkent sh.




Qashqadaryo viloyati




Navoiy viloyati

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 48,1 % i to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,0% punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,9% ni tashkil etgan holda 80 407,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (71,9%), Sirdaryo viloyati (67,6%) va Jizzax viloyatiga (63,9%) to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududlar kesimida hajmi (mlrd so'm)




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori ulushga ega hududlar, jamiga nisbatan % da



Samarqand viloyati




Sirdaryo viloyati



Jizzax viloyati

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 27,5% ni yoki 45 869,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,2% ni tashkil etdi. Shundan 35 419,4 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 109,8% ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 4 520,4 mlrd so'mni va 84,4% ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 5 930,1 mlrd so'mni va 98,7% ni tashkil etdi.



Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

90,0 %
oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

115,6 %
oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

111,0 %
oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

97,2 %
oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

105,2 %
oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

11 285,8
mlrd so'm

14 742,9
mlrd so'm

18 097,1
mlrd so'm

41 529,0
mlrd so'm

45 869,9
mlrd so'm

2020

2021

2022

2023*

2024

Yillar

* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent viloyatida (7 097,7 mlrd so'm), Toshkent shahrida (5 184,3 mlrd so'm) va Buxoro viloyatida (4 747,2 mlrd so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd so'mda)

	2 069,9
Qoraqalpog'iston Resp.	3 410,1
Andijon	4 747,2
Buxoro	1 165,3
Jizzax	2 848,8
Qashqadaryo	3 007,8
Navoiy	4 182,5
Namangan	1 320,9
Samarqand	3 138,1
Surxondaryo	536,1
Sirdaryo	7 097,7
Toshkent	3 521,8
Farg'ona	3 639,4
Xorazm	5 184,3
Toshkent sh.	

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori hajmga ega bo'lgan hududlar (mlrd so'mda)



7 097,7
Toshkent viloyati



5 184,3
Toshkent shahri




4 747,2
Buxoro viloyati


Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 5,0% i), Andijon viloyatida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 4,4% i) va Samarqand viloyatida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 4,4% i) qayd etildi.

Hududlar kesimida davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm)



Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm)




* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Hududlar kesimida nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (98,1 %), Toshkent shahrida (98,0 %) va Farg'ona shahrida (97,7 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd so'mda)



Nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd so'mda)



* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.